

O'ZBEK TILIDAGI MATNLARDA SHAXS RUHIY HOLATINING IFODALANISHI**Tursunpo'latova Mohinur Erkin qizi**

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589543>

ANNOTATSIYA. Maqola tilshunoslikda yangi rivojlanib kelayotgan sohasi bo'lgan psixolingvistikadagi matn va uning yaratilish masalasiga bag'ish langan. Muallif matn yaratilishida ruhiy omil larning o'rnini belgilashda o'zbek materiallariga tayanadi.

Kalit so'zlar: matn, personaj, ruhiy holat, ohang, assotsiativ so'zlar.

Badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tadqiq etgan M.Yo'ldoshev o'z ilmiy ishida prof. N.Mahmudovning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratadi: «Tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy ruhiy zamindan mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli «til»ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas... Holbuki, odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari, quvonch va qayg'ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi».

Haqiqatan, til insoniy histuyg'ularni ifodalashning eng samarali usullaridan biridir. U shunday xususiyatga ega bo'lganligi uchun ham o'quvchining tuyg'ularini «boshqara oladi» – uning qalbida turli kechinmalar, hissiyotlarni paydo qiladi.

Xususan, badiiy matn «Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi».

Badiiy matnning ayni shu xususiyatini tadqiq etgan rus tilshunosi V.P.Belyanin o'z kitoblaridan birida Vigotskiyning «Hamma joy da – fonetikada, morfologiyada, leksika va semantikada, hatto ritmika, vazn va musiqada – grammatik va shakliy kategoriyalar ortida psixologik omillar yashiringan!» – degan fikrini keltirib o'tadi.



Psixolingvistikaning vazifalaridan biri til birliklari ortida yashiringan psixologik omillarni matnning lingvistik xususiyatlari bilan uyg'unlikda o'rganishdan iboratdir.

Psixologiyaga doir adabiyotlarda inson emotsiyasi affekt (kuchli, lekin qisqa muddatli emotsional reaksiyalar), hissiyot (uzoq va turg'un emotsional munosabat), kayfiyat va stress (kuchli ruhiy zarba) kabi turlarga bo'lib o'rganiladi. Tabiiyki, badiiy adabiyot bu emotsiyalarning barcha turlarini ifodalash imkoniga ega.

Psixolingvistikada o'ziga xos yo'nalish yaratgan V.P.Belyanin o'zining «Оснoвы психологической диагностики (модели мира в литературе)» nomli kitobida matnni psixolingvistik tahlil qilib, matnda ifodalangan emotsiya turlariga ko'ra ularni turga ajratadi: 1) yorug' matnlar; 2) qorong'i matnlar; 3) qayg'uli matnlar; 4) quvnoq matnlar; 5) chiroyli matnlar; 6) murakkab matnlar.

Uning «Psixologicheskoe literaturovedenie» (Moskva, 2006) nomli kitobida bu fikrlar yanada chuqurlashtirilib, badiiy matnlar psixiatrik adabiyotshunoslik nomli yangi yo'nalish nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

V.P.Belyanin yuqoridagi matn turlari tahlilida insonning qanday hissiyotlari dominantlik qilganligini psixolog sifatida aniqlash barobarida ular da qanday lingvistik birliklar qo'llanganligiga ham e'tiborini qaratadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, V.P.Belyanin badiiy asarning psixolingvistik tahliliga bag'ishlangan asarida emotsional-mazmuniy dominanta badiiy matn yaratilishida asosiy uyushtiruvchilik vazifasini bajarishi haqidagi fikrni ilgari surdi. Uning qarashicha, emotsional-mazmuniy dominanta «matn yaratilishi yadrosi sifatida badiiy matnning mazmuni, tuzilishi, sintaksisi, uslubi va leksik tanlovini belgilab beradi. V.P.Belyanin emotsional-mazmuniy dominanta terminini quyidagicha izohlaydi: «Emotsional-mazmuniy dominanta – muayyan shaxs tipi uchun xarakterli bo'lgan hamda olam manzarasi va matnni metaforalashtirish va verballashtirish uchun psixik asos bo'lib xizmat qiladigan kognitiv va emotiv etalonlar tizimidir». Shu o'rinda dominanta so'zining psixologik talqinini keltirib o'tishni joiz deb bilamiz. Dominanta – (lot. dominans – hukmronlik qiluvchi) markaziy asab tizimida vaqtincha hukmronlik qiluvchi reflektor tizim bo'lib, boshqa reflektor tizimlarning tormozlanishi natijasida organizmni muayyan faoliyatga yo'naltiradigan yashirin tayyorgarlikni yaratuvchi jarayon hisoblanadi⁸. V.P.Belyanin

emotsional-mazmuniy dominanta haqidagi qarashida matnda ifodalangan muayyan vaziyatni shaxs aksentuatsiyasi bilan bog'laydi.

O'zbek badiiy prozasida ham insoniy hissiyotlar ifodasi berilgan mikromatnlar ko'plab uchraydi. Biz mazkur maqolada Belyanin izi dan borib, turli hissiyotlarning ifodalanishida qanday til birliklari aktuallashtirishini tahlil etishga urinib ko'ramiz.

Avvalo, aytish lozimki, hissiyot ifodasi berilgan mikromatnlar badiiy asarlarda turli holatlar vositasida yuzaga keltiriladi. Ulardan asosiylari, bizningcha, quyidagilardan iborat:

1. Asar personajining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi: Nahot, Siz yoki Sizga nisbatan ko'nglimda tug'ilgan telba muhabbat faqat va faqat o'zimning ustimdan kulish uchun yaralgan bo'lsa?! Biron kimsaga lom-lim deb og'iz ocholmayman, achchiq-achchiq kulaman, xolos. Sog'inchning zo'ridan ezilibkichrayib, holsizlanib qolgan lahzalarda – bedor tunlar yurak dukuridan o'zga hamroh topolmay alamdan avval o'zimga malomat toshlarini yog'diraman, so'ng Sizni ayblashga o'taman. Ayblayman... ardoqlayman... sog'inaman... O'zimni zo'rlab bo'lsa-da, Sizni eslamaslikka, ismingizu suratingizni xotiramda tiklamaslikka urinaman va harchand uringanim sari... Sizni avvalgidan ko'ra qattiqroq yaxshi ko'rib qolaman, avvalgidan ko'proq va tezroq sog'inaman, Sizga atalgan qaynoq ehtiroslarimni avvalgidan ko'ra yonib-toshib izhor etish ehtiyoji ortib boradi... (X.Do'stmuhammad. «Hijronim mingdir mening» qissasi)

2. Personajning ruhiy holati asar muallifi nutqi vositasida beriladi. Bunda muallif quyidagi usullardan foydalanadi:

a) personajning ruhiy holatini bevosita bayon qiladi:

Eshikdan qoqinib-surinib Salohiddin zargar kirdi va uydan chiqayotgan tabibga to'qnashib yiqilib tushdi. Tabib uni o'rnidan turg'izmoqchi bo'lgan edi, chol uning qo'lini siltab tashlab, o'ksib yig'laganicha o'zini murda ustiga tashladi:

–Bo'stonimning guli! Ochilmay so'ngan g'uncham! Sen o'lguncha men o'lsam bo'lmasmu? Qari qo'yday ma'ratib, qari buvangni kimga tashlab ketmishsen, qo'zichog'im?.. Inongan farzandim sen eding! Endi bu davlat, bu xonumonim kimga qolur, oltinim? Kimga?..

Mushtdekkin bo'lib qolgan zargarining go'daklaracha faryodi Ali Qushchini titratib yubordi. Ko'zida g'ilt-g'ilt yosh, u devorga suyanganicha garangsib turardi (O.Yoqubov. «Ulug'bek xazinasi» romani);

b) personajning jismoniy xatti-harakatlarini tasvirlash orqali uning ruhiy holatiga ishora qiladi: Shiftdagi oltin qandilga terilgan o'nlarcha shamlar shu'lasida shahzodaning so'nik yuzi go'yo ganchdan yasalgan niqobday sovuq tuyular, chuqur botgan ko'zlari bejo charaqlar, qo'sh-qo'sh tilla uzuk taqilgan ingichka qoramtir barmoqlari asabiy titrardi (O.Yoqubov. «Ulug'bek xazinasi» romani);

v) tabiat tasviri orqali personajning ruhiy holatiga ishora qiladi: Kuz tongi salqin va xushhavo bo'ladi; endi quyoshning tafti tonggi qirovlarnigina eri tishga zo'rg'a yetadi; subhisodiqdanoq bu yerlarni tashlab ketayotgan qushlarning sayrog'i, qiyqiriqlari quloqqa chalinadi; uzoq-uzoqlardagi tog'larga langar tashlagan ayoz qo'shinlari hali quyosh kezib yurgan cho'llarga va paxtazorlarga tajovuzkor nazar tashlaydi, sahar paytlari esa kuchi va istehkomini bilib olmoqchi kabi bu yerlarga tumanlar josusona sirg'alib kiradi, quyosh chiqishi bilan yana tog'lar orasiga yashirinadi. Kuz tongida yuragingda paxtazor kabi sirli va xatarli nimadir uyg'onadi, lekin u tuyg'uning otini sen hech qachon topolmaysan, zotan, bu tuyg'uning oti ham bo'lmaydi (N.Eshonqul. «Momoqo'shiq» qissasi).

Insonning ruhiy holati aks etgan mikromatnlar shuni ko'rsatadiki, ularning sintaktikstruktur tuzilishi hamda matn yaratish uchun lozim bo'lgan nominativ birliklar qanday bo'lishini aynan matnda ifodalanayotgan hissiyotning xarakteri belgilab beradi – matn tuzuvchi shu hissiyotga mos keluvchi so'zlar, jumlar va ohangdan foydalanishga harakat qiladi. Bu, V.P.Belyanin ta'kidlaganidek, matnning muhim psixolingvistik xususiyatlaridan biridir.

Badiiy asarlarni kuzatish natijasida aytish mumkinki, ohang insonning affektiv holatini tasvirlashda eng aktual birlik sifatida namoyon bo'ladi. Quyidagi mikromatnlarga e'tibor bering:

Ikromjon hamon uning duch kelgan joyiga musht solardi. U mushtlardi-yu, allaqanday xunuk ovoz bilan baqirardi:

– Onang qandoq xotin edi! Qandoq xotin edi! Nomard! Ona qabrga qo'yilayotganda ko'rib turib yoniga borolmagan, oqpadar! O'z qo'li bilan tuproqqa qo'yishdan qochgan, yaramas! Onang qandoq xotin edi-ya! Sen juvonmargga qandoq mehr qo'ygan edi-ya! Sen uni o'ldirding! O'zing o'ldirib, yana o'zing uni tuproqqa qo'yganlarini tomosha qildingmi? Iflos! (S.Ahmad. «Ufq» romani)



– Sizlarga mendan nima kerak o‘zi?! – U Muhiddin Jabborovichga naq bostirib borgudek vajohatda edi. – Nima kerak?! Mana shu paxta navi kerakmi? Olinglar! Olinglar! Meni tinch qo‘yinglar! Sizlar topgansizlar bu navni. Sizlar yaratgansizlar! Olinglar! Ushog‘iyam kerakmas menga! Faqat meni tinch qo‘yinglar! Kabinet diqqinapas bo‘lsa-da, butun xona bir tanaga aylangandek hammaning qulog‘i ding edi. Faqat Azizning ovozi jaranglardi:

– Lekin bitta haqiqatni gapirib olaman. Uni bu yerdagi o‘tirganlarning ko‘pi biladi, ammo aytmaydi. Men ham aytmay-aytmay, shuncha chidadim. Endi aytaman! Endi qo‘rqmayman!

– Azizning chindan ham jazavasi tutib ketgandi. – O‘shanda siz, muhtaram akademik, mana nima degansiz! Aspirantligimdayoq «bu tajribaga ovora bo‘lma... boshni og‘ritma...» – degansiz. Bu ishimni sarob degansiz. Esingizdami? Yaqin-yaqingachayam meni xom xayol, dovdur deb kalaka qilgansiz! Chidadim. Mana, Shorasul tirik, ziyofatida tekkizib aytgan gaplaringiz-chi?! Anovi muhokama paytida-chi? «Odam hayotda ming xil adashishi mumkin... To‘g‘ri yo‘l esa – bitta», deb butun umrimni bag‘ishlagan mavzuimdan chalg‘itgan vaqtlaringizni, nahotki, unutdingiz?! Axir, qaysi lafzingizga ishonay?! Endi qarasangiz, boshqacha chiqib qoptimi? Qo‘y nimtalaganday, dastyorlaringizga, gumashtalaringizga taqsimlab beryapsiz?! Nuqul yuqori idoralarni o‘rtaga solasiz! Qani, aytinch, mard bo‘lsangiz ko‘pchilikning ichida, kimga boribman, axir? Kimga nolibman? ... Siz shunchalikka bordingizmi, bo‘ldi, to‘ydim! Kechdim shu ishdan! Sizlarga siylov! Faqat meni tinch qo‘yinglar!

Aziz u yog‘iga o‘zini to‘xtatolmay, yig‘lab yubordi va shart burilib, tashqariga chiqib ketdi (O‘.Usmonov. «Girdob» romani).

Matnda psixologik holatlarni ifodalashda assotsiativ so‘zlar ham muhim o‘rin egallaydi. Bunday so‘zlar matnda o‘ziga xos assotsiativ maydon hosil qilib, matn o‘quvchisining ruhiyatida ham muayyan holatni yuzaga keltiradi. Bunday holatning yuzaga kelishiga matnda qo‘llangan, psixologik jihatdan o‘zaro aloqador bo‘lgan so‘zlar haqidagi obrazlarning qayta tiklanishi sabab bo‘ladi.

Ma‘lumki, so‘zlar o‘z ma‘nosi bilan inson psixikasiga ta‘sir etish xususiyatiga ega. Inson o‘z xotirasida so‘zlarning ma‘nolari bilan birga ularning ob‘ektiv olamda o‘z sezgi a‘zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli muayyan so‘z uni eshituvchi odam xotirasida muayyan assotsiatsiyalarni paydo qiladi. Agar matnda bir assotsiativ maydonga

kiruvchi soʻzlar qoʻllangan boʻlsa, ular oʻquvchi psixikasiga yanada kuchliroq taʼsir etadi. Quyidagi matnga eʼtibor bering: Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorbooshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga soʻz bermay, baʼzan irgʻishlab borar edi; biroq goʻriston koʻchasiga burilib, salobat bilan tebranayotgan qopqora chinor ostida oqarishib turgan sagʻanalarni, belgisiz zulmatni koʻrganda yuragi uvushdi-yu, zovur koʻprigidan oʻtib, ikki qadam yurgancha toʻxtab qoldi. Dahshat uning yuragiga rahna soldi: Ganjiravon, ota-onasi, dugonalari xayolidan koʻtarilib, koʻz oldiga oppoq kafanga oʻralib sagʻana va goʻrlar atrofida yelib yurgan arvohtar keldi. Uning eti jivirlashib, sochi boshidagi roʻmolini bir qarich koʻtarganday boʻldi. Unsin beixtiyor bir qadam orqaga chekindi, lekin shu ondayoq xuddi oʻlikdan qoʻrqmasligini birovga pisanda qilayotganday, baqirib: «Oʻlikning joni yoʻq, oʻlikning joni yoʻq!» – deb olgʻa intildi. Shu yugurganicha chinor ostidagi Onhazratim sagʻanasi oldida toʻxtadi; choynak bilan qumgʻonni oyogʻi ostiga qoʻydi, parangi-chimmatini bir chekkaga tashladi, ichida: «Koʻpi ketib ozi qoldi», – deb suyundi (A.Qahhor. «Dahshat» hikoyasi).

Matndan koʻrinadiki, uning tarkibida qoʻllangan goʻriston, sagʻana, kafan, oʻlik, goʻr, zulmat, qop-qora soʻzlari hikoya personaji – Unsinning yuragidagi benihoya kuchli dahshatni ifodalashi bilan birga, oʻquvchida ham qoʻrquv hiscini paydo qiladi. Oʻquvchi goʻyoki Unsin bilan birga «qop-qora chinor ostida oqarishib turgan sagʻanalarni, belgisiz zulmatni» koʻrgandek «yuragi uvushadi». Bu yerda til (soʻzlar) mashhur ruhshunos P.Pavlov aytganidek, ikkinchi signal vazifasini bajarib, insonning markaziy asab tizimidagi maʼlum nuqtalarni «uygʻotadi», yaʼni assotsiativ maydonga kiruvchi soʻzlar haqidagi obrazlarni qayta tiklaydi. Bu jarayon inson tuygʻularini tasvirlash bosh maqsadi boʻlgan lirik tur janrlaridan biri boʻlgan sheʼrda yanada yorqinroq namoyon boʻladi. Turli sheʼrlarni mutolaa qilganimizda bizda turli kayfiyatning paydo boʻlishiga eng avvalo uning ohangi va assotsiativ soʻzlar paydo etuvchi reaksiya sabab boʻladi. Oʻquvchi sheʼrni oʻqish jarayonida unda ifodalangan mazmunni anglash barobarida sheʼr ohangi va assotsiativ soʻzlar taʼsirini ham his qilib boradi. Masalan, A.Oripovning «Sevgi oʻlimi» nomli sheʼri ana shunday xususiyatga egadir:

Yomgʻirli kun edi, atrof jim, sokit,
Sening koʻzlaringga boqardim sarmast.
Sekin shivirlading: «Qoʻy, boqma, yigit,

Sevging menga yangilik emas».

Yomg'ir ham tinmadi o'sha kuni hech,
U ham quvolmadi ko'zda xobingni.
Sovuq, rutubatli xonamga shu kech
Olib qaytdim iztirobingni...

She'riy matnda qo'llangan yomg'irli kun, jim, sokit, sekin, sovuq, rutubatli, iztirob so'zlari o'quvchi shuurida yomg'irli, sovuq va rutubatli havo paydo qiladigan mahzun kayfiyatni yuzaga keltiradi. She'riy matnda ifodalangan umidsizlik o'quvchi yuragiga ham kirib boradi. Demak, adabiyotshunos olimlar tomonidan «so'z sehri» deb ta'riflanuvchi ushbu jarayon ma'lum ma'noda o'z moddiy asosiga ega, deyish mumkin. Bunda matn o'quvchisining tezaurusi, so'zni va ohangni his etish salohiyati, shuningdek, muayyan adabiy jarayon me'yorlari haqidagi bilimi ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada matn muallifi va o'quvchi teng darajada bo'lmas ekan, o'quvchi matnda ifodalangan badiiy mazmunni hech qachon uning muallifi darajasida anglab yetolmaydi.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи таркибида лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.¹

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.²

¹ Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

² Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.



Корпус лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.³

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.⁴

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris "Devonu lugotit turk" in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.⁵

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.⁶

This article covers the main place of small business and business in today's market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.⁷

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий

негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз

³ Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

⁴ Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

⁵ Bakhriddinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

⁶ Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

⁷ Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.



аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.⁸

In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.⁹

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.¹⁰

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.
8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁸ Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁹ Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

¹⁰ Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



9. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.
10. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.
11. Бойбобоев, Н. Г., Кучкаров, С. К., & Касимов, А. А. (2015). Результаты исследований по обоснованию параметров планчатого катка комбинированного агрегата. *Science Time*, (6 (18)), 79-83.
12. Холмирзаев, Ж. З., Кучкоров, С. К., & Эксанова, С. Ш. (2020). УДАРНО-ВРАЩАТЕЛЬНАЯ ДИНАМИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАБОЧЕГО ОРГАНА ОЧИСТИТЕЛЯ ХЛОПКА. КОНЦЕПЦИИ И МОДЕЛИ УСТОЙЧИВОГО ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ, 137.
13. Имомкулов, К. Б., & Кучкоров, С. К. (2019). РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ОБОСНОВАНИЮ ВЫСОТЫ ВЫРАВНИВАТЕЛЯ ЧИЗЕЛЬНОГО РЫХЛИТЕЛЯ. In ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ НАУКИ И ОБЩЕСТВА В ЦЕЛЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ (pp. 82-85).
14. Имомкулов, К. Б. (2016). ИССЛЕДОВАНИЕ ДЕФОРМАЦИИ ПОЧВЫ ПОД ВОЗДЕЙСТВИЕМ РАБОЧИХ ОРГАНОВ ПОЧВООБРАБАТЫВАЮЩИХ МАШИН В УСЛОВИЯХ ДЕБЛОКИРОВАННОГО РЕЗАНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1226-1228).
15. Турдалиев, В. М., Кучкаров, С. К., & Касимов, А. А. (2017). ОБОСНОВАНИЕ ФОРМЫ, УПЛОТНЯЮЩЕЙ ПОВЕРХНОСТЬ РАБОЧЕГО ОРГАНА ВЫРАВНИВАТЕЛЯ. *Научное знание современности*, (3), 277-283.
16. Мухамедов, Ж., Турдалиев, В. М., Косимов, А. А., & Кучкоров, С. К. (2017). РАСЧЕТ МОЩНОСТИ КОМБИНИРОВАННОГО АГРЕГАТА ДЛЯ ПРЕДПОСЕВНОЙ ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ И ПОСЕВА МЕЛЬКОСЕМЕННЫХ ОВОЩНЫХ КУЛЬТУР. *Вестник Науки и Творчества*, (3 (15)), 93-98.
17. БАЙБОБОЕВ, Н. Г., КУЧКОРОВ, С. К., & КОСИМОВ, А. А. (2015). РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ОБОСНОВАНИЮ ПАРАМЕТРОВ ПЛАНЧАТОГО КАТКА КОМБИНИРОВАННОГО АГРЕГАТА. *Вестник Рязанского государственного агротехнологического университета им. ПА Костычева*, (4), 43-44.